

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautes Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 261-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH
Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlar hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208

USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI

Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari.....214

ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari.....223

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH

Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari.....234

TADJIYEVA SAYYORAXON URALOVNA

Hudud marketing kapitalining nazariy asoslari va konseptual modeli.....240

SHAMSIKULOVA MOXINA BONU FURKATOVNA

Tibbiy xizmatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning xorij tajribasi.....254

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Oliy ta'limda iqtisodiy fanlarni o'qitish orqali talabalarning moliyaviy madaniyatini yuksaltirish.....261





OLIV TA'LIMDA IQTISODIV FANLARNI O'QITISH ORQALI TALABALARNING MOLIVAVIV MADANIYATINI YUKSALTIRISH

HAMIDOV RUSHAN ERKINOVICH

Buxoro davlat universiteti

Marketing va menejment kafedrası o'qituvchisi

E-mail: hamidov.rushan@gmail.com

ORCID: 0000-0001-5776-5002

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning moliyaviy madaniyatini yuksaltirishning nazariy-metodik asoslari va amaliy mexanizmlari tadqiq etilgan. Moliyaviy madaniyat tushunchasining mazmun-mohiyati, tarkibiy komponentlari (kognitiv, amaliy-faoliyatli, qadriyat-motivatsion) va rivojlanish darajalarini aniqlash mezonlari asoslab berilgan. Buxoro davlat universiteti iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabarlari ishtirokida o'tkazilgan pedagogik tajriba-sinov natijalari keys-stadi, loyiha metodi, moliyaviy simulyatsiya va raqamli ta'lim vositalarini iqtisodiy fanlar mazmuniga integratsiyalash talabalar moliyaviy madaniyati darajasini statistik jihatdan ishonchli oshirishini ko'rsatdi ($\chi^2=7,85>\chi^2_{0,05}=5,99$). Tadqiqot yakunida ta'lim jarayonini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy madaniyat, moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy fanlar, oliy ta'lim, interfaol metodlar, keys-stadi, moliyaviy simulyatsiya, pedagogik tajriba-sinov, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация. В статье исследованы теоретико-методические основы и практические механизмы повышения финансовой культуры студентов в процессе преподавания экономических дисциплин в вузах. Обоснованы сущность понятия финансовой культуры, её структурные компоненты и критерии определения уровней её развития. Результаты педагогического эксперимента, проведённого со студентами экономических направлений Бухарского университета инноваций, показали, что интеграция кейс-стади, метода проектов, финансовых симуляций и цифровых средств обучения статистически достоверно повышает уровень финансовой культуры студентов.

Ключевые слова: финансовая культура, финансовая грамотность, экономические дисциплины, высшее образование, интерактивные методы, кейс-стади, финансовая симуляция, педагогический эксперимент.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations and practical mechanisms for enhancing students' financial culture through the teaching of economic disciplines in higher education. The essence of the concept of financial culture, its structural components (cognitive, practical-activity, value-motivational) and the criteria for determining its development levels are substantiated. The results of a pedagogical experiment conducted with students of economic programmes at Bukhara Innovation University demonstrate that integrating case studies, project-based learning, financial simulations and digital learning tools into the content of economic disciplines produces a statistically significant increase in students' financial culture ($\chi^2=7.85>\chi^2_{0.05}=5.99$). Practical recommendations for improving the educational process are proposed.

Keywords: financial culture, financial literacy, economic disciplines, higher education, interactive methods, case study, financial simulation, pedagogical experiment, competency-based approach.

KIRISH

Jahonda raqamli moliyaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi, moliya bozorlari instrumentlarining murakkablashuvi va iste'mol kreditlashning keng tarqalishi sharoitida aholining, xususan, yoshlarning moliyaviy madaniyatini yuksaltirish davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatidagi ustuvor vazifalardan





biriga aylandi. Standard & Poor's kompaniyasining global moliyaviy savodxonlik tadqiqoti natijalariga ko'ra, dunyo bo'yicha katta yoshli aholining atigi uchdan bir qismi moliyaviy savodxon hisoblanadi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ushbu ko'rsatkich yanada past [1]. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan o'tkazilgan xalqaro tadqiqotlar ham moliyaviy bilim, ko'nikma va munosabatlarning yetarli darajada shakllanmaganligi shaxsning noratsional moliyaviy qarorlar qabul qilishi, qarzдорlik yukining ortishi hamda moliyaviy firibgarlik qurboniga aylanish xavfini sezilarli oshirishini tasdiqlamoqda [2]. Shu bois moliyaviy madaniyatni ta'lim tizimi, avvalo, oliy ta'lim orqali maqsadli shakllantirish masalasi jahon ilm-fanida dolzarb tadqiqot yo'nalishi sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonda ham mazkur masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, bank xizmatlaridan foydalanish qamrovini kengaytirish va kapital bozorini rivojlantirish vazifalari belgilangan [3]. Shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga yetkazish ustuvor yo'nalish etib belgilangan bo'lib [4], bu vazifalarning ijrosi bevosita oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o'qitish mazmuni va metodikasini takomillashtirishni taqozo etadi. Zero, bugungi talaba — ertangi mutaxassis, tadbirkor, oila byudjetini boshqaruvchi fuqaro sifatida mamlakat iqtisodiy barqarorligining tayanchi hisoblanadi.

Moliyaviy madaniyat masalasining dolzarbligi mamlakatimizda moliyaviy xizmatlar bozorining jadal raqamlashuvi bilan yanada kuchaymoqda. Masofaviy bank xizmatlari, mobil to'lov ilovalari, onlayn mikroqarzlilar va bo'lib to'lash (nasiya) savdo platformalarining ommalashuvi, bir tomondan, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yoshlar uchun yangi risklar — impulsiv qarz olish, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligiga tahdidlar, onlayn firibgarlik sxemalari xavfini yuzaga keltirdi. Bunday sharoitda moliyaviy qaror qabul qilish tezligi ortib, xatoning "narxi" ko'tarilmoqda. Talabalik davri esa shaxs birinchi marta mustaqil moliyaviy qarorlar (stipendiya va daromadni taqsimlash, ijara, kredit, jamg'arma) qabul qila boshlaydigan sensitiv davr bo'lganligi bois, aynan oliy ta'lim bosqichi moliyaviy madaniyatni maqsadli shakllantirish uchun eng qulay pedagogik imkoniyat hisoblanadi.

Ammo amaliyot tahlili oliy ta'limda iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayoni ko'p hollarda nazariy bilimlarni uzatishga yo'naltirilganligini, talabalarning shaxsiy moliyaviy qarorlar qabul qilish, byudjet tuzish, jamg'arish, investitsiyalash va moliyaviy risklarni baholash kabi amaliy kompetensiyalari esa yetarlicha rivojlantirilmayotganligini ko'rsatmoqda. Natijada iqtisodiy bilimlar bilan real moliyaviy xulq-atvor o'rtasida uzilish yuzaga kelmoqda. Ushbu ziddiyat — jamiyatning moliyaviy madaniyatli mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji bilan oliy ta'limda ushbu madaniyatni maqsadli shakllantirishning ilmiy asoslangan





metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi o'rtasidagi nomuvofiqlik — mazkur tadqiqot muammosini belgilab berdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Moliyaviy savodxonlik va moliyaviy madaniyat muammosi xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng tadqiq etilgan. A.Lusardi va O.Mitchell moliyaviy savodxonlikni “shaxsning moliyaviy axborotni qayta ishlash va asoslangan moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyati” sifatida ta'riflab, uning inson kapitalining alohida shakli ekanligini, moliyaviy savodxonlik darajasi bilan jamg'arish, pensiya rejalashtirish va investitsion faollik o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjudligini empirik jihatdan isbotlagan [5]. A.Atkinson va F.Messy OECD/INFE metodologiyasi doirasida moliyaviy savodxonlikni bilim, xulq-atvor va munosabat (attitude) komponentlarining birligi sifatida o'lchash tizimini ishlab chiqqan [6]. OECD tomonidan o'tkaziladigan PISA xalqaro baholash dasturining moliyaviy savodxonlik moduli esa ta'lim tizimida moliyaviy kompetensiyalarni shakllantirish samaradorligini qiyosiy baholash imkonini bermoqda [7].

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlari (O.Kuzina, D.Moiseeva va boshqalar) tadqiqotlarida moliyaviy madaniyat moliyaviy savodxonlikka nisbatan kengroq tushuncha sifatida talqin etilib, u bilimlar tizimidan tashqari qadriyatlar, me'yorlar va barqaror xulq-atvor modellarini ham qamrab olishi ta'kidlanadi [8]. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning darslik va ilmiy ishlarida bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy bilimlarning uzluksiz ta'lim tizimidagi o'rni, iqtisodiy tafakkur va tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan [9; 10]. Shu bilan birga, mavjud ishlar tahlili moliyaviy madaniyatni aynan oliy ta'limdagi iqtisodiy fanlar didaktik salohiyati orqali tizimli yuksaltirish masalasi maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmaganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, an'anaviy ma'ruza-seminar tizimini amaliyotga yo'naltirilgan interfaol texnologiyalar bilan uyg'unlashtirishning talabalar moliyaviy xulq-atvoriga ta'siri bo'yicha empirik dalillar tanqis.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatli yondashuvlarga tayanadi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qo'llanildi: ilmiy-pedagogik va iqtisodiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyoslash va umumlashtirish; me'yoriy-huquqiy hujjatlar va o'quv-metodik hujjatlar (fan dasturlari, ishchi dasturlar) kontent-tahlili; anketa so'rovi va testlash; pedagogik kuzatish va suhbat; pedagogik tajriba-sinov; olingan natijalarni matematik-statistik qayta ishlash (foizli taqsimot, o'rtacha qiymatlar, Pirsonning χ^2 mezon, Student t-mezon).

Tajriba-sinov ishlari 2024–2025-o'quv yilida Buxoro davlat universitetining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari (“Iqtisodiyot”, “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”)da tahsil olayotgan 2–3-kurs talabalari ishtirokida o'tkazildi. Tadqiqotga jami 126 nafar talaba jalb etilib, ular tasodifiy tanlov asosida tajriba





guruhi (TG, n=64) va nazorat guruhiga (NG, n=62) ajratildi. Nazorat guruhida “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Mikroiqtisodiyot”, “Moliya va kredit” fanlari an’anaviy metodika asosida, tajriba guruhida esa ishlab chiqilgan metodika — moliyaviy madaniyatni yuksaltirishga yo’naltirilgan didaktik modullar, keys-stadi, loyiha topshiriqlari, moliyaviy simulyatsiyalar va raqamli vositalar integratsiyasi asosida o’qitildi. Tajriba boshida va yakunida ikkala guruhda ham bir xil diagnostik instrumentariy (40 ta test topshirig’i, 12 ta vaziyatli masala va o’z-o’zini baholash anketasi) qo’llanilib, natijalar 100 ballik shkala bo’yicha baholandi hamda yuqori (86–100 ball), o’rta (56–85 ball) va past (55 ballgacha) darajalarga ajratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida moliyaviy madaniyat — shaxsning moliyaviy bilimlari, amaliy ko’nikma va malakalari, qadriyat yo’nalishlari hamda mas’uliyatli moliyaviy xulq-atvorining yaxlit tizimi bo’lib, u shaxs umumiy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida uning moliyaviy resurslarni oqilona shakllantirish, taqsimlash va ko’paytirish faoliyatida namoyon bo’lishi aniqlashtirildi. Moliyaviy savodxonlik moliyaviy madaniyatning kognitiv asosi bo’lsa, moliyaviy madaniyat undan xulq-atvor barqarorligi, axloqiy-qadriyat komponenti va ijtimoiy mas’uliyat jihatlar bilan farqlanadi. Shu asosda talabalar moliyaviy madaniyatining uchta o’zaro bog’liq komponenti ajratildi: kognitiv komponent (moliya, pul-kredit munosabatlari, soliqlar, sug’urta, investitsiyalar to’g’risidagi tizimli bilimlar); amaliy-faoliyatli komponent (shaxsiy byudjetni rejalashtirish, moliyaviy mahsulotlarni qiyosiy tahlil qilish, risklarni baholash, raqamli moliyaviy xizmatlardan xavfsiz foydalanish ko’nikmalari); qadriyat-motivatsion komponent (moliyaviy mas’uliyat, tejamkorlik, halol daromad qadriyati, uzoq muddatli rejalashtirishga moyillik).

Ushbu komponentlar asosida talabalar moliyaviy madaniyati rivojlanganlik darajalarini baholash mezonlari ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Talabalar moliyaviy madaniyati rivojlanganligini baholash mezonlari va darajalari

Mezon (komponent)	Yuqori daraja	O’rta daraja	Past daraja
Kognitiv	Moliyaviy tushunchalar tizimini chuqur biladi, ularni yangi vaziyatlarga mustaqil tatbiq etadi	Asosiy tushunchalarni biladi, tatbiq etishda qisman yordamga muhtoj	Bilimlar uzoq-yuluq, tushunchalarni chalkashtiradi
Amaliy-faoliyatli	Byudjet tuzadi, moliyaviy mahsulotlarni qiyoslaydi, riskni mustaqil baholaydi	Namuna asosida hisob-kitob va tahlil bajaradi	Amaliy topshiriqlarni bajarishda jiddiy qiynaladi
Qadriyat-motivatsion	Moliyaviy mas’uliyat va uzoq muddatli rejalashtirish barqaror qadriyatga aylangan	Ijoiy munosabat mavjud, ammo xulq-atvorda beqaror	Moliyaviy qarorlarga befarq, vaziyatli yondashadi





Tajriba guruhida qo'llanilgan metodikaning mohiyati iqtisodiy fanlarning mavjud mazmunini buzmaganda unga moliyaviy madaniyatni rivojlantiruvchi didaktik birliklarni integratsiyalashtirish iborat bo'ldi. Birinchidan, har bir mavzu doirasida nazariy material shaxsiy moliya kontekstiga "ko'priklar" orqali bog'landi: masalan, "Inflyatsiya" mavzusi jamg'armalarning real qiymatini hisoblash amaliyoti bilan, "Kredit va uning shakllari" mavzusi iste'mol krediti bo'yicha to'liq qiymatni (foiz stavkasi, komissiyalar, sug'urta) hisoblash keysi bilan to'ldirildi. Ikkinchidan, keys-stadi metodi asosida real hayotiy vaziyatlar (oilaviy byudjetdagi taqchillik, omonat turini tanlash, moliyaviy piramida belgilari, valyuta kursi o'zgarishining ta'siri) tahlil qilindi. Uchinchidan, "Mening moliyaviy rejam" semestrlik loyihasi joriy etilib, unda har bir talaba o'z daromad-xarajatlarni bir oy davomida kuzatib, tahlil qildi va olti oylik shaxsiy moliyaviy reja ishlab chiqdi. To'rtinchidan, moliyaviy simulyatsiya va rol o'yinlari ("Bank va mijoz", "Investitsiya portfeli" treningi) hamda mobil ilovalar, Markaziy bankning ochiq ma'lumotlari va onlayn kalkulyatorlar kabi raqamli vositalar muntazam qo'llanildi.

Tajriba-sinov boshida o'tkazilgan diagnostika ikkala guruhda ham moliyaviy madaniyat darajasi bir-biriga yaqin va nisbatan pastligini ko'rsatdi: yuqori darajali talabalar ulushi TGda 14,1 %, NGda 12,9 %ni tashkil etdi, past darajali talabalar esa mos ravishda 43,7 % va 45,2 %ga teng bo'ldi. Boshlang'ich holat bo'yicha guruhlar o'rtasidagi farq statistik ahamiyatga ega emasligi aniqlandi ($\chi^2=0,04 < \chi^2_{0,05}=5,99$), bu esa guruhlarining bir jinsliligini tasdiqlaydi. Yakuniy kesim natijalari 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval

Tajriba-sinov boshi va yakunida talabalar moliyaviy madaniyati darajalarining taqsimoti

Daraja	TG boshl., % (n=64)	TG yakuniy, %	NG boshl., % (n=62)	NG yakuniy, %
Yuqori (86–100 ball)	14,1	32,8	12,9	17,7
O'rta (56–85 ball)	42,2	51,6	41,9	46,8
Past (≤ 55 ball)	43,7	15,6	45,2	35,5
O'rtacha ball	56,4	74,8	55,9	61,2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori darajali talabalar ulushi 14,1 %dan 32,8 %ga (2,3 barobar) oshgan, past darajali talabalar ulushi esa 43,7 %dan 15,6 %ga (28,1 foiz bandiga) kamaygan. Nazorat guruhida ham ijobiy dinamika kuzatilgan bo'lsa-da (bu tabiiy o'quv jarayonining ta'siri bilan izohlanadi), o'zgarishlar sur'ati sezilarli darajada past: yuqori daraja ulushi atigi 4,8 foiz bandiga oshgan. Guruhlar dinamikasining yaqqol qiyosi 1-rasmda aks ettirilgan.





1-rasm. Tajriba (TG) va nazorat (NG) guruhlarida moliyaviy madaniyat darajalari dinamikasi, %

Yakuniy kesim bo'yicha tajriba va nazorat guruhlari taqsimotlari o'rtasidagi farqning statistik ishonchliligi Pirsonning χ^2 mezonini yordamida tekshirildi. Hisoblangan qiymat $\chi^2=7,85$ bo'lib, u erkinlik darajasi $df=2$ va ahamiyatlilik darajasi $\alpha=0,05$ uchun jadval qiymatidan ($\chi^2_{0,05}=5,99$) katta. Demak, guruhlar o'rtasidagi farq tasodifiy emas, balki joriy etilgan metodika ta'siri bilan bog'liq degan xulosa 95 % ishonchlilik bilan qabul qilinadi. O'rtacha ballar bo'yicha o'tkazilgan Student t-mezonini ham buni tasdiqladi: yakuniy kesimda $t=4,87 > t_{0,05}=1,98$. Komponentlar kesimida eng katta o'sish amaliy-faoliyatli komponentda qayd etildi (TGda o'rtacha 21,3 ballga), bu ishlab chiqilgan metodikaning aynan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilganligi bilan izohlanadi.

Metodika ta'sirining tarkibiy manzarasini aniqlash maqsadida natijalar moliyaviy madaniyat komponentlari kesimida ham tahlil qilindi (3-jadval).

3-jadval

Moliyaviy madaniyat komponentlari bo'yicha o'rtacha ballar dinamikasi (100 ballik shkala)

Komponent	TG boshl.	TG yakuniy	NG boshl.	NG yakuniy	Farq (TG-NG)
Kognitiv	58,7	76,9	58,1	64,0	+12,9
Amaliy-faoliyatli	52,6	73,9	52,3	58,6	+15,3
Qadriyat-motivatsion	57,9	73,6	57,4	61,0	+12,6
Umumiy o'rtacha	56,4	74,8	55,9	61,2	+13,6

3-jadval ma'lumotlari barcha komponentlar bo'yicha tajriba guruhidagi o'sish nazorat guruhidagidan ustunligini ko'rsatadi. Kognitiv komponentdagi o'sish (TGda 18,2 ball) nazariy materialning amaliy kontekst bilan mustahkamlanishi bilimlarning chuqur va uzoq muddatli o'zlashtirilishini ta'minlashini tasdiqlaydi. Amaliy-faoliyatli komponentdagi eng yuqori o'sish





(21,3 ball) semestrlik loyiha va simulyatsiyalarning bevosita natijasi bo'lsa, qadriyat-motivatsion komponentdagi nisbatan sekinroq, ammo barqaror ijobiy dinamika (15,7 ball) qadriyatlarning faoliyat tajribasi orqali asta-sekin ichkilashtirilishini ko'rsatadi. Nazorat guruhida barcha komponentlar bo'yicha o'sish 5,2–6,3 ball oralig'ida qolgan.

Sifat tahlili ham e'tiborga molik natijalarni berdi. Tajriba guruhi talabalari bilan o'tkazilgan yakuniy so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 81,3 %i semestr davomida shaxsiy byudjet yuritishni boshlaganini, 67,2 %i jamg'arma maqsadini belgilaganini, 59,4 %i moliyaviy mahsulotlarni tanlashda shartnoma shartlarini mustaqil tahlil qila olishini qayd etgan. Nazorat guruhida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 41,9 %, 32,3 % va 29,0 %ni tashkil etdi. Bu ma'lumotlar bilimlarning xulq-atvorga aylanish jarayoni aynan amaliyotga yo'naltirilgan topshiriqlar orqali faollashishini ko'rsatadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlar xulosalari bilan hamohangdir. Xususan, A.Lusardi va O.Mitchell moliyaviy ta'lim dasturlarining samaradorligi ularning amaliy vaziyatlarga bog'langanligi va o'z vaqtida berilishi ("teachable moments") bilan belgilanishini ta'kidlagan edi [5]; bizning tajribamizda ham eng yuqori o'sish nazariy materialning shaxsiy moliya kontekstiga bevosita bog'langan modullarida kuzatildi. OECD/INFE yondashuvidagi uch komponentli tuzilma (bilim — xulq-atvor — munosabat) [6] mazkur tadqiqotda kognitiv, amaliy-faoliyatli va qadriyat-motivatsion komponentlar shaklida pedagogik jihatdan konkretlashtirildi va diagnostika instrumentariysiga aylantirildi, bu esa yondashuvning oliy ta'lim sharoitiga moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot ayrim muhim jihatlarni ham yuzaga chiqardi. Birinchidan, qadriyat-motivatsion komponentning o'sishi kognitiv va amaliy komponentlarga nisbatan sekinroq kechdi: qadriyatlar bir semestr davomida to'liq barqarorlashmaydi, ular uzluksiz pedagogik ta'sirni talab qiladi. Bu moliyaviy madaniyatni yuksaltirish ishini alohida fan yoki modul doirasi bilan cheklamasdan, butun ta'lim davri bo'ylab uzviy tashkil etish zarurligini anglatadi. Ikkinchidan, o'qituvchining tayyorgarligi hal qiluvchi omil ekanligi ma'lum bo'ldi: interfaol metodlar va simulyatsiyalarni samarali qo'llash o'qituvchidan ham metodik, ham amaliy moliyaviy kompetensiyani talab qiladi, shu bois professor-o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlariga tegishli modullarni kiritish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, raqamli vositalar talabalar motivatsiyasini sezilarli oshirgan bo'lsa-da, ular metodik jihatdan to'g'ri didaktik topshiriqqa "o'ralgan" taqdirdagina natija berishi kuzatildi — vositaning o'zi emas, uni qo'llash metodikasi birlamchi ahamiyatga ega.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida tanlanma hajmining bitta oliy ta'lim muassasasi doirasi bilan chegaralanganligi va tajriba muddatining bir o'quv yili bilan cheklanganligini ko'rsatish mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda metodikaning turli hududlar va ta'lim yo'nalishlari (jumladan, noiqtisodiy yo'nalishlar)dagi samaradorligini qiyosiy o'rganish, shuningdek, bitiruvchilarning real moliyaviy





xulq-atvorini longityud kuzatish orqali metodika ta'sirining barqarorligini baholash istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi. Moliyaviy madaniyat — moliyaviy savodxonlikdan kengroq, kognitiv, amaliy-faoliyatli va qadriyat-motivatsion komponentlarning yaxlitligini ifodalovchi integrativ shaxsiy sifat bo'lib, uni oliy ta'limda maqsadli yuksaltirishning eng tabiiy va samarali kanali iqtisodiy fanlarning didaktik salohiyatidan foydalanish hisoblanadi. Iqtisodiy fanlar mazmuniga shaxsiy moliya kontekstidagi keys-stadi, semestrlik moliyaviy loyiha, simulyatsion o'yinlar va raqamli vositalarni integratsiyalash talabalar moliyaviy madaniyatining barcha komponentlarini statistik jihatdan ishonchli darajada ($\chi^2=7,85>5,99$; $t=4,87>1,98$) rivojlantiradi hamda bilimlarning real moliyaviy xulq-atvorga aylanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi: iqtisodiy fanlarning fan dasturlari va ishchi dasturlariga moliyaviy madaniyatni rivojlantiruvchi amaliy modullarni (shaxsiy byudjet, kredit qiymatini hisoblash, investitsiya asoslari, moliyaviy xavfsizlik) kiritish; har bir iqtisodiy fan bo'yicha kamida bitta uzluksiz amaliy loyihani baholash tizimiga integratsiyalash; oliy ta'lim muassasalarida Markaziy bank, tijorat banklari va sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlikda amaliy mashg'ulotlar, mehmon ma'ruzalari va o'quv amaliyotlarini tashkil etish; professor-o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlariga moliyaviy ta'lim metodikasi modulini kiritish; talabalar moliyaviy madaniyatini monitoring qilishning ishlab chiqilgan mezonlar tizimidan ta'lim sifatini ichki baholashda foydalanish. Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan inson kapitalini rivojlantirish va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish vazifalarining ijrosiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Klapper L., Lusardi A., van Oudheusden P. Financial Literacy Around the World: Insights from the Standard & Poor's Ratings Services Global Financial Literacy Survey. — Washington, DC: World Bank, 2015. — 27 p.
2. OECD/INFE 2020 International Survey of Adult Financial Literacy. — Paris: OECD, 2020. — 78 p.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).





5. Lusardi A., Mitchell O.S. The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence // Journal of Economic Literature. — 2014. — Vol. 52, No. 1. — P. 5–44.
6. Atkinson A., Messy F. Measuring Financial Literacy: Results of the OECD/INFE Pilot Study // OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions. — 2012. — No. 15. — 73 p.
7. PISA 2018 Results (Volume IV): Are Students Smart about Money? — Paris: OECD Publishing, 2020. — 254 p.
8. Кузина О.Е. Финансовая грамотность и финансовая компетентность: определение, методики измерения и результаты анализа в России // Вопросы экономики. — 2015. — № 8. — С. 129–148.
9. Shodmonov Sh.Sh., G'ofurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. — Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2018. — 728 b.
10. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: darslik. — Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2018. — 712 b.
11. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).
12. OECD Recommendation on Financial Literacy. — Paris: OECD, 2020. — 14 p.
13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti: www.cbu.uz (murojaat sanasi: 2026-yil iyun).



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**